


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) magistratura
mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil «24» 08 dagi 4-conli yig‘ilishida ma‘qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil «25» 08 dagi 365-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standartlari. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi	4
1.2.1. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy vazifalari	5
2. 70230101 – <i>Lingvistika (o‘zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar	7
Bibliografik ma’lumotlar	8
Kelishuv varag‘i	9

1. 70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi malaka talab-ining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)*** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘zbek tili, umumta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitish; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar bo‘yicha istiqbolni belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usul va metodlari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- o'zbek tili;

- til qurilishi, til va nutq birliklari;

- o'zbek tilining taraqqiyot qonuniyatlari;

- O'zbekistondagi lisoniy vaziyat;

- tilshunoslik: an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlari;

- umumfilologik va ijtimoiy fanlar mazmuniga taalluqli bo'lgan turli nutq uslublariga doir asarlar;

- adabiy manbalar;

- lingvistik manbalar;

- lug'at va qomuslar;

- jonli nutq materiallari;

- ommaviy axborot vositalari materiallari.

1.2.3. 70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;

- pedagogik faoliyat: oliy, malaka oshirish, qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda umumta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);

- tashkiliy-boshqaruv faoliyat;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga layoqatli bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik mavzularga mos jurnallar, to'plamlarga maqola va tezislar tayyorlash.

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumta'lim, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot, muassasa va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt ish yuritish faoliyatini davlat tilida olib borishni yo'lga qo'yish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini belgilash;

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

- pedagogik faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

- pedagogik jarayonlarni, davlat tilida ish yuritishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv jarayonlarini rejalashtirish va olib borish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimi yutuqlariga asoslanib pedagogik jarayonlar monitoringi va sifatini baholash usullarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- ta'limiy vositalarning pedagogik-psixologik me'yor talablariga mosligini ta'minlashda, amaliyotga tatbiqi va nazorati jarayonlarida faol ishtirok etish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- nostandart vaziyatlarda tashkiliy boshqaruv qarorlari qabul qilishi va ushbu qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish;

- nodavlat va notijorat tashkilotlarida, xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha menejer sifatida faoliyat yuritish.

Quyidagi magistr darajasi kvalifikatsiyasi beriladi:

- tilshunos (tadqiqotchi-pedagog)

2. 70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, pedagogik muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy

asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy-tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosiy mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalar mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- nazariy tilshunoslikning yetakchi xususiyatlarini bilishi;

- lingvokulturologiyaning asosiy yo'nalishlari, tilning paremiologik, frazeologik fondi, tilning ramzlar, metaforai va obrazlari, tillarning stilistik qatlami, nutqiy muomala, nutq etiketi, lingvomadaniy paradigma, lingvokulturema, madaniy konsept, submadaniyat, universaliya, til va madaniyatning o'zaro ta'siri, til-madaniyat haqidagi lingvistik ta'limotlar, olamning lisoniy manzarasi, lisoniy shaxs haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

- matn lingvistikasining ilmiy-nazariy masalalari, matn birliklari, matn tiplari, matnning bog'lovchi vositalar, matnning lingvistik tahlili, matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni, matnning antroposentrik tahlili bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi;

- psixolingvistika va pragmalingvistikaning nazariy masalari, asosiy tushuncha va kategoriyalari bo'yicha bilim va malakalarni hosil qilishi;

- areal lingvistika mazmun-mohiyati, fan ilmiy muammolarining asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishii;

- maxsus fanlarni o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi, pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- umumta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida, OTM tizimining mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yoʻnalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning oʻquv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, ta'lim texnologiyalari, mustaqil ta'lim, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, umumta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim muassasasi, oʻqib-oʻrganish natijalari, oʻquv davri, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Rektor Sh.S.Sirojiddinov
2021-yil « _____ » _____
M.O:



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi**

Direktor v.b. M.Esonov
2021-yil « _____ » _____
M.O:



**O'zR FA
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Direktor N.Mahmudov

2021-yil « _____ » _____
M.O:



Kadrlar buyurtmachilari